
The semantic field of the concept HEALTH/SOG'LIK in English and Uzbek languages: linguocultural and cognitive analysis

Turaxanova Nigora Ixtiyorovna

turaxovanigora555@gmail.com

Master's student,

Uzbek State World Languages University

Annotation

This article is devoted to the study of the semantic field and conceptual models of the "health/sog'lik" concept in English and Uzbek, based on a sociocultural and cognitive analysis. The main idea of the study is that, the concept "health" is translated into Uzbek as "sog'lik", however, their lexical core-periphery, metaphorical conceptualization and cultural characteristics differ. Therefore, the semantic field approach is adopted as the methodological basis, and cognitive metaphors are analyzed on the basis of definitions from explanatory dictionaries. This concept encompasses not only linguistic aspects but also medical and cultural features. It also covers the fundamentals of a healthy lifestyle, prevention and health promotion. Health is considered the primary condition for the fulfilment of a person's biological and social functions. From a linguocultural perspective, in English health is more often understood as physical, practical well-being, prevention and personal responsibility, In Uzbek, the national-cultural content of the health concept is closely linked to human life, well-being and value systems, prayers and moral perspectives. The results indicate the necessity of taking into account subtle differences in concepts in linguocultural, cognitive analysis and translation processes.

Keywords

Concept, semantic structure, HEALTH, SOG'LIK, cognitive linguistics, semantic field, linguaculture, cognitive analysis

Ingliz va o'zbek tillarida "HEALTH/SOG'LIK" tushunchasining semantik maydoni: lingvomadaniy va kognitiv tahlil

Turaxanova Nigora Ixtiyorovna

turaxovanigora555@gmail.com

Magistrant,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi "health/sog'lik" konseptining semantik maydoni hamda konseptual modellarini lingvomadaniy va kognitiv tahlil asosida o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqotning asosiy g'oyasi "health" konsepti o'zbek tiliga "sog'lik" tarzida tarjima qilinsada, ularning leksik-yadro periferiyasi, metaforik konseptuallashtirish hamda madaniy xususiyatlari turli xilda ekanligidir. Shu bilan birga, metodologik asos sifatida semantik maydon yondashuvi, izohli lug'atlar ta'riflariga asoslangan holda kognitiv metaforalar tahlil qilinadi. Ushbu konsept nafaqat lingvistik jihatdan, balki tibbiy va madaniy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. U organizmning sog'lom turmush tarzi, profilaktika va sog'lomlashtirish asoslarini ham qamrab oladi. Sog'lik insonning biologik va ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Lingvomadaniy tomondan, ingliz tilida sog'lik ko'proq jismoniy, amaliy farovonlik, profilaktika va shaxsiy javobgarlikni ifodalasa, o'zbek tilida sog'lik konseptining milliy-madaniy mazmuni inson hayoti, farovonlik

va qadriyatlar tizimi, duolar va axloqiy qarashlar bilan chambarchas bog'liq. Natijalar lingvomadaniyat, kognitiv tahlil va tarjima jarayonlarida konseptlardagi nozik farqlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar *Konsept, semantik struktura, HEALTH, SOG'LIK, kognitiv lingvistika, semantik maydon, lingvomadaniyat, kognitiv tahlil*

Семантическое поле понятия “HEALTH/SOG'LIK” в английском и узбекском языках: лингвокультурный и когнитивный анализ

Тураханова Нигора Ихтиеровна
turaxanovanigora555@gmail.com

Магистрант,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *Данная статья посвящена исследованию семантического поля и концептуальных моделей понятия «health/sog'lik» в английском и узбекском языках на основе социокультурного и когнитивного анализа. Основная идея исследования заключается в том, что, хотя понятие «здоровье» переводится на узбекский язык как «соглик», их лексическая ядро-периферия, метафорическая концептуализация и культурные характеристики различаются. Поэтому в качестве методологической основы принят подход, основанный на семантическом поле, а когнитивные метафоры анализируются на основе определений из толковых словарей. Данное понятие охватывает не только лингвистические аспекты, но и медицинские и культурные особенности. Оно также включает в себя основы здорового образа жизни, профилактику и укрепление здоровья. Здоровье считается первоочередным условием выполнения человеком своих биологических и социальных функций. С лингвокультурной точки зрения в английском языке под здоровьем чаще понимают физическое, практическое благополучие, профилактику и личную ответственность. В узбекском языке национально-культурное содержание понятия «здоровье» тесно связано с человеческой жизнью, благополучием, а также системой ценностей, молитвами и моральными взглядами. Полученные результаты указывают на необходимость учета тонких различий в концепциях при проведении лингвокультурного и когнитивного анализа, а также в процессе перевода.*

Ключевые слова *Концепт, семантическая структура, HEALTH, SOG'LIK, когнитивная лингвистика, семантическое поле, лингвокультура, когнитивный анализ*

Kirish.

Til inson tafakkurining mahsuli bo'lishi bilan bir qatorda, muloqot vositasi, dunyoni bilish, u haqida axborot to'plash va uni saqlash, boshqalarga yetkazish vosita hisoblanadi.

Tilning insoniyat taraqqiyotida va hayot faoliyatida bajaradigan vazifalari hisobsizdir. Ammo qanday vazifa bajarilishidan qat'iy nazar, til birliklari, birinchi navbatda ma'noga ega bo'lishlari lozim. Aks holda, tilning

muloqot vositasi, bilim manbai bo'lishi hamda axborot uzatish quvvati batamom yo'qoladi (Safarov, 2013). Har bir tilda o'zining ijtimoiy va madaniy tushunchalariga ega bo'lgan konseptlar mavjud bo'lib, ular insonlarning an'analari keng tushuntirib beradi va shu bilan bir qatorda tilshunoslikda keng o'rganiladi. Shunday konseptlardan biri "Sog'lik" konseptidir. "Sog'lik" konsepti qadim zamonlardan buyon shakllanib kelgan. Zamonaviy jamiyatda "Sog'lik" konsepti inson turmush tarzining eng muhim omillaridan biri hisoblanib, o'z semantik maydonlariga ega. Masalan, o'zbek tilda "sog'-salomatlik", "sihat", "tob", "sog'lomlik", "kasallik", "nosog'lomlik", "kasalmandlik" kabi so'z va so'z birliklari "Sog'lik" konsepti ostidagi semantik maydonni tashkil qiladi. Barcha zamonaviy "sog'lik" tushunchalari sog'likni kasallik yo'qligidan ko'ra kengroq tushunib, uni shaxsning o'zini anglashi va o'zini rozi qilish imkoniyatlari deb hisoblab, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan to'liq sokinlik sifatida ham izohlanaydi. Bu esa, konseptni tilshunoslikda yanada kengaygan semantik maydon sifatida o'rganilishini targ'ib qiladi.

Ingliz tilidagi *HEALTH* va o'zbek tilidagi *SOG'LIK* konseptlari umumiy mazmunga ega bo'lishiga qaramay, ularning semantik maydoni va strukturasi, metaforik ifodalanishi hamda lingvomadaniy xususiyatlari turlicha shakllangan. Mazkur maqolaning maqsadi ushbu konseptlarning semantik tarkibini kognitiv jihatdan tahlil qilish va ularning umumiy hamda farqli tomonlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslikda asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan "konsept" murakkab ong birligi hisoblanib, bilim tuzilmalarini ifodalash vositasi, ko'p qirrali kognitiv tuzilma va xotiraning amaliy birligi sifatida qaraladi (Ashurova, 2018). Lingvistlar ta'kidlashicha, konsept dunyo haqidagi umumiy bilimlarimizning bir qismi bo'lib, inson kognitiv

faoliyatini aks ettiruvchi konseptual tizimning birligidir. Safarovga ko'ra, konsept bilimlarni ramkalar, skriptlar, ssenariylar va gestaltlar shaklida tizimlashtirish vositasidir (Safarov, 2006).

O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atida "sog'lik" terminiga quyidagicha ta'rif beriladi (Mahmudov va b., 2023):

SOG'LIK, SALOMATLIK, SIHAT, TOB Organizm a'zolarining normal (to'g'ri) ishlab turish holati. Sog'lik keng qo'llanadi. Salomatlik, sihat faqat odamga nisbatan qo'llanadi. Sihat so'zi sog'lik, salomatlik so'zlariga nisbatan kam qo'llanadi. Tob so'zi ko'pincha yo'q so'zi bilan birga so'zlashuv nutqida qo'llanadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda "sog'lik" tushunchasi inson qadriyatlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Masalan, Mahmudov o'zining "Til va madaniyat" kitobida "sog'lik" tushunchasiga o'zbek madaniyatining muhim qismi va ko'zgusi sifatida qaraydi (Mahmudov, 1992). Ushbu konseptni bir qancha jihatlarini sanab o'tadi. O'zbek xalq madaniyatida sog'lik ko'pincha "hayotning asosi", tinchlik va farovonlikning sharti sifatida qadrlanadi. Kitobda sog'lik haqida gap ketganda, ushbu tushunchaga oid xalq donishmandligi misollaridan foydalanilgan: "Sog'lik to'yda kerak, sog'lik kunda kerak". Olim "sog'lik" bu yerda alohida "konsept" emas, balki madaniyatning bir qismi ya'ni, hayotiy qadriyat, xalq tajribasi sifatida til orqali ifodalaydi.

Inglizcha "health" so'zi qadimgi ingliz *hal* – *butun*, *sog'lom* ildizidan kelib chiqqan bo'lib, u o'z navbatida qadimgi german tillari bo'limiga mansub nemischa *heil* – *buyuk*, *butun* so'zidan olingan. Uning kelib chiqishi hind-yevropa tillaridagi **kai-lo-*, **kai-lu-* tuzilmasiga borib taqalib, bu yerda "butun", "sog'lom", "zararsiz" ma'nolari mavjud. Zamonaviy ingliz tilidan misol: *healed person*. Ma'no quyidagicha: *butun* = *sog'lom* deganidir. Butun shaxsiyat, butun tana, butun ruh = *sog'aygan*, *sog'lom* inson. Shuningdek, zamonaviy ingliz tilida *sog'lik* konsepti bilan

bog'liq "Mental health", "healthy lifestyle", "well-being", "fitness", "self-care" kabi yangi terminlar paydo bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Til va madaniyat o'zaro ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

Birinchi usul – leksik-semantik maydon nazariyasi asosida konseptni semantik strukturasini tahlil qilish. Bunda yadroviy ma'no sifatida "health/sog'lik" konseptni olinib, semantik komponentlari sifatida jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, profilaktik, tibbiy va madaniy ma'nolarini qamrab olinadi. O'zbek va ingliz tilidagi "sog'lik/health" konseptini til vositasida ifodalovchi lingvistik birliklar majmuasini aniqlashdan iborat.

Ikkinchi usul – Maqollar tahlili "health/sog'lik" tushunchasining universal va xususiy madaniy komponentini ifodalovchi darajani baholashga imkon beradi, bu esa milliy til ongi holatini aks ettiradi.

Uchinchi usul – konseptual modellarni aniqlashda kongnitiv metafora tahlili

qo'llaniladi. Bunda konseptual metaforalarning to'rt xil strukturalaridan foydalaniladi.

Tahlil va Natijalar

O'zbek va ingliz tillarining izohli lug'atlarini tahlilidan so'ng, "sog'lik" tushunchasi quyidagi umumiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi isbotlandi:

- organizmning barcha a'zolari to'g'ri ishlaydigan normal holati (well-being);
- insonning yaxshi yashashi (healthy lifestyle);
- ruhiy va ijtimoiy farovonligi (mental and social health);
- tilak ma'nosida (masalan: Sog' bo'ling, Bless you).


Semantik maydonning yadroviy birligi sifatida "sog'lik" konsepti olindi. "Sog'lik" konseptining nominativ maydoni konseptual tahlil metodologiyasiga muvofiq yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya qismlaridan iborat bo'lib, bu model konseptning til birliklari orqali ifodalanish darajasini aniqlash imkonini beradi (Popova, 2007).



1-jadval. Sog'lik konseptining semantik maydoni

Tadqiqot davomida sog'lik konseptining keng leksik-semantik maydonga ega ekanligi aniqlandi:

Sog'likni fiziologik holatini ifodalovchi birliklar. Bu maydonga inson tanasining jismoniy va ruhiy holatini ifodalovchi so'zlar kiradi.



2-jadval. Sog'likni fiziologik holatini fodalovchi birliklar

Sog'liq tushunchasi mavhumdir. U ko'rish, eshitish yoki tegish mumkin bo'lgan aniq obyekt emas. Ammo odamlar uning ahamiyatini obrazli tushunchalar orqali idrok etib, sog'liqni qimmatbaho narsa – boylik va

xazina deb hisoblashadi. Jadvalda ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlarida "sog'lik" tushunchasining nazariy, obrazli va qiymat xususiyatlari taqdim etilgan.

Tushuncha	O'zbek	Ingliz
Sog'lik - qadryat sifatida	Fziolgik-psixologik inson holati uning hayotida eng nuhim jihat sifatida qabul qilinadi. Salomatlik organizmning yaxlitligi va normal holatda ishlayotgani tushuniladi.	
	Sog' tanda sog'lom aql. Boylikni boshi – sog'lik. Salomatlik – tuban boylik	Healthy mind in a healthy body. Health is wealth.
Sog'lik – Xudoning ne'mati sifatida	Salomatlik bu Xudoning ne'matidir. Islom dinining nuqtayi nazaridan, Xudo insonni tuzatish uchun kasallik beradi(sabrni sinash, gunohlarni tozalash) Xudo bergan dardga sabr berar. Bandaning boshi – xudoning qo'lida.	Ingliz madaniyatida sog'lik asosan tibbiy tushuncha sifatida qabul qilinadi, shuningdek, kasalliklarni oldini olish vositasi sifatida tabiiy resurslar bilan bog'lab tushuniladi. An apple a day keeps doctor away. Prevention is better than cure.
Sog'lik – duo sifatida	O'zbek milliy qadryatlarida sog'lik tilash duo sifatida qabul qilinadi. – Sog' boling ! – Joningiz sog' bo'lsin! – Sihat-salomatlik tilayman.	Ingliz madaniyatida soglikka nisbatan bunday tushunchalar kam. – Bless you !

3- jadval. Tushuncha tahlili: ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar va gaplar misolida

Semantik maydon tarkibida ko'plab umumiy elementlar mavjud bo'lsa-da, periferik qatlamda sezilarli lingvomadaniy tafovutlar kuzatiladi. Har ikki tilda sog'lik inson hayotining eng oliy qadriyati sifatida talqin qilinadi. O'zbek tilidagi "sog'lik" tushunchasida diniy komponentlar kuchli hisoblanib, asosan Islom dinidan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. Bunda "sog'lik" oila va inson farovonligi, sabrni sinash, gunohlardan forig' bolish kabi g'oyalari bilan teng ko'riladi va diniy, axloqiy va oilaviy qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Ingliz tilida esa aksincha, insonning individual qarashlaridan kelib chiqqan holda, "sog'lik" ilmiy-medsina va sog'lom turmush tarzi bilan ko'proq bog'lanib, asosan, tananing sog'ligi, kasal bo'lmaslik, ruhiy salomatlik kabi qarashlar bilan tenglashtiriladi.

Jorj Lakof va Mark Jonsonning fikricha, metafora nazariyasi mavhum tushunchalarni aniqroq tajribalarga asoslanib tushuntiradi (Lakoff, 1980). Maqollarda sog'lik ko'pincha so'zma-so'z ma'nolaridan ko'ra metaforalar orqali tushuniladi.

- 1) Struktural metaforaga asoslanib, sog'lik konseptini xazinaga qiyoslab quyidagi natija olindi.

HEALTH IS A TREASURE

Source domain/Manba: Treasure, valuable object/Xazina, qimmatbaho narsa

Target domain/Maqсад: Health/Sog'lik

Sog'lik qimmatbaho xazina sifatida tasavvur qilinadi. Odamlar pulni qanday himoya qilsa, shunday sog'likni ham himoya qilib, saqlashi kerak. Bu metafora sog'lik hayotning eng katta boyligi ekanligi g'oyasini aks ettiradi.

- 2) Orientatsion metafora "butun tushunchalar tizimini bir-biriga nisbatan tartibga solidi" va fazoviy yo'nalishlarga tegishli: yuqori-past, ichki-tashqi.

HEALTH AND LIFE ARE UP, SICKNESS AND DEATH ARE DOWN

He's at the peak of health – Uning sog'ligi alo darajada

His health is declining – Uning sog'ligi yomonlashib boryapti

- 3) Konduit metaforasi muloqotga ishora qiladi va murojaat qiluvchi o'zining ruhiy g'oyalari (tuyg'ular, fikrlar)ni xabarida so'zlar, iboralar, jummalarga joylaganida, murojaat qilinuvchi esa ularni shu lingvistik shakllardan chiqarib olganda amalga oshadi. Shunday qilib, til odamlar o'rtasida ruhiy mazmunni yetkazuvchi "kanal" sifatida qaraladi.

HIS ADVISE HELPED ME UNDERSTAND MY ILLNESS.

Maslahat ulashish orqali kasallikka davo topilganida qo'llanilgan ushbu metafora, maslahatga o'z g'oyasini yetkazuvchi kanal sifatida qaralgan.

- 4) Konteiner metaforasi quyidagi tarzda ishlaydi: bir tushunchaviy soha ikkinchi tushunchaviy soha ichida deb hisoblanadi. Lakoff va Johnson ta'kidlaganidek, konteiner mantig'i "o'z ichiga olish"dan kelib chiqadigan mantiqiy sxemalarni tasavvur qilishga undaydi (Lakoff, 1980).

HEALTH IS A JOURNEY

Source domain/Manba: Travel and movement/Sayohat va harakat

Target domain/Maqсад: Health/Salomatlik

Prevention is better than cure. (Oldini olish davolashdan yaxshiroq)

Garchi bevosita harakatni tilga olmasa-da, maqol sog'liqni saqlash uzluksiz jarayon ekanligini anglatadi. Odamlar kasalliklardan saqlanishga yordam beradigan, oldini olish choralari amal qilib, bir yo'lda harakatlanadilar.

Xulosa

HEALTH va SOG'LIK konseptlari inson tafakkuridagi eng muhim konseptlardan biridir. Ularning semantik strukturasi yadro va periferik komponentlardan tashkil topgan bo'lib, leksik birliklar, maqollar va metaforalar orqali namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillarining tahlili sog'lik konseptining universal va milliy-madaniy jihatlarini aniqlash imkonini

beradi. Mazkur tadqiqot natijalari kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik hamda qiyosiy tilshunoslik yo'nalishlarida olib

boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

References:

1. Ashurova, D. U., & Galiyeva, M. R. (2018). *Cognitive linguistics* [Когнитив лингвистика]. Toshkent.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
3. Mahmudov, N., & Mirtojyev, M. (1992). *Til va madaniyat*. O'zbekiston.
4. Mahmudov, N., Lutfullayeva, D., Odilov, Y., Xudoyberganova, D., Yo'ldoshev, M., Ko'chimov, S., Andaniyazova, D., & Musayeva, F. (2023). *O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati* (N. Mahmudov tahriri ostida). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. *Oxford English Dictionary*.
6. Popova, Z. D., & Sternin, I. A. (2007). *Kognitivnaya lingvistika*. AST: Vostok-Zapad.
7. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. "Sangzor" Nashriyoti, Jizzax.
8. Safarov, Sh. (2013). *Semantika*.